

O'z vujudunga tafakkur aylagil!

Alisher NAVOIY



TONG

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

Yulduzi

570

YIL

2011-yil
7-fevral
N:6
(66807)

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

«OROM»NING BILAG'ONLARI

Mamlakatimiz maktablarida fan oyliklarini yuqori saviyada o'tkazish yaxshi an'anaga aylandi. Bu esa o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlagani bois, ularning salohiyatini oshishida muhim omil bo'lmoqda.

Kuni kecha poytaxtimizdagi «Orom» umumiy o'rta ta'lim beruvchi bog'cha maktab markazida «Tarix va huquq» fan oyligining yakuniga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi. Maktabning tantanalar zaliga yig'ilgan o'quvchilar va mehmonlar fan oyligining yakuniga bag'ishlangan hisobotga puxta hozirlik ko'rilganiga guvoh bo'ldilar.

Anjuman boshlovchilari davrani o'zbek, rus va ingliz tilida olib borganlari ko'pchilikka o'zgacha zavq bag'ishladi. Maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Dilfuza Umarovaning shogirdlari mazkur fanlar bo'yicha chuqur bilimga ega ekanliklarini namoyish etdilar.

Huquqbuzarlikning turli ko'rinishlari va ularni oldini olish bo'yicha chiroyli tarzda namoyish etilgan sahna ko'rinishlari nihoyatda ta'sirchan chiqdi. O'z navbatida tadbir tashkilotchilari bilan bir qatorda, mehmonlar ham o'zlarining huquq va burchlari to'g'risida boy ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Tashabbuskorligi va izlanuvchanligi bilan ko'pchilikka tanish bo'lgan maktab rahbari Gulnora Qo'chqorova hisobot tadbiri yuqori saviyada o'tgani, o'quvchilarning faolliklaridan mamnun ekanligini alohida ta'kidladi.

«Tarix va huquq» fan oyligi yakuniga bag'ishlangan tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilar munosib taqdirlandilar. Ular bu fanlar bo'yicha puxta bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda, eng sadoqatli do'st sanalmish kitoblarga ega bo'ldilar. Sovg'adan mamnun bo'lgan o'quvchilar navbatdagi fan oyligida ham qizg'in ishtirok etish harakatini boshlab yubordilar.

Suratlar muallifi Olovuddin ORIPOV

MENGA XAT KELDI



2-bet

NEVALI DARAXTGA
AYLANA YAPMIZ



4-bet

BIR
AYT SIRI...

5-bet

ODAMLARI
YAXSHI EKAN

Astrobod viloyatini idora qilish Badiuzzamon Mirzoga topshirilgan paytlar ekan. Saodatli Shahzoda viloyatni kezb, xushxulqli Amir Navoiy mulklaridan biri bo'lgan Xayrobod qishlog'iga kelib qolibdi. Qishloq odamlari juda dilkash, gaplari ma'nili, shirinso'z va mehmondo'st ekan. Ular Shahzodaga shu qadar yoqib qolibdiki, shu manzil meniki bo'lsa-yu, bu joyda qo'nim topsam, deb orzu-havas qilibdi va niyatini ko'ngligiga sig' dirolmay: «Biror kishi vositachilik qilib Hazrati sultondan shu qishloqni bizga sotib olib bermasmikan?!» debdi. Amir Navoiy Hazratlarining xizmatchilaridan biri G'iyosiddin Muhammad Dehdor bu gapni eshitib: «Hazratimning

NAVOIY HAQIDA
HIKOYALAR

menga bergan vakolatidan foydalanib, shu qishloqni siz shahzodamga tortiq qildim», debdi. Sulton Badiuzzamon xursand bo'lib, unga qulluq qilibdi.

Bu oliy xabar Alisher Navoiy Hazratlari bobomiz quloqlariga yetgach, bag'oyat sevinibdilar, ayniqsa, Shahzodaning qishloq odamlari haqida aytgan shirin so'zlari u zotni juda quvontiribdi va xizmatkorlari G'iyosiddinning oqilona ish tutganidan mamnun bo'lib, unga boshdan-oyoq maxsus kiyimbosh, bir ot puli va 1000 kepakiyni berib yuboribdi.

SHOIRNING
G'ALLASI

O'ychan o'tirgan Shahzoda Muhammad Muhsin boshini ko'tardi:

– Sabzavor shahrining xaxira g'allasi oz, biror chorasini ko'rmoq lozim.

Amir va noiblar boshlarini quyi egishdi: vaziyat hammaga besh qo'l-day ma'lum, boshqa hech joyda g'alla yo'q, borini to'plashdi. Endi qanday chora-tadbir qo'llab, qayerdan g'alla to'plash mumkin? Shahzoda talab etayotgan ekan, uni bajarmoq lozim. U ham o'zi uchun emas, elni deb qayg'urmoqda.

Noiblardan biri oldinga chiqib, o'ng tizzasini bukib ta'zim qildi:

– Shahzodam...

Muhammad Muhsin umid va ilinj bilan unga xayrixoh ko'z tikdi:

– So'zlang!

– Amir Navoiy Hazratlarining omborlari g'allaga liq to'la. To biz g'alla topgunimizcha, ul zotdan ehtiyojimizga loyig'ini olib tursak bo'lmasmi?!

Shahzodaning qovog'i uyildi, ammo u zahrini ichiga yutib:

– Amir janoblarining g'allasiga ko'z tikish bizga yarashmas! – dedi sokin, vazmin ohangda.

Noib mulzam bo'lib joyiga qaytdi.

Amir Navoiy Hazratlariga bu gap yetib borishi bilan Sabzavordagi barcha g'allalarini Shahzodaga tortiq qildi va:

– Har bir dona bug'doy o'rnida bir donadan marvarid bo'lganda ham Shahzo-

Bizning muxlislar

Aziz muxlisim!

Bu haftada ham sizlardan bir talay xat oldim. E'tibor uchun rahmat!

MENGA XAT KELDI



U shunday yozibdi:

«Gazetaning har bir sonini muntazam o'qib boraman. Bo'sh vaqtlarimda «Mohir qo'llar» va «Yosh rassomlar» to'garaklariga qatnashib turaman. «Mening oilam», «Bizning qishloq» mavzusida chizgan rasmlarimni yuborayapman».

Har ikki rasm bir-birini to'ldirgan, nazarimizda, Mohinur astoydil harakat qilsa, kelgusida undan taniqli rassom chiqishi mumkin.

O'zingiz yaxshi bilasizki, mamlakatimizda yangi zamonaviy qishloqlar qad rostla-

moqda. Mohinurning «Bizning qishloq» rasmida ana shu mavzu juda tiniq aks ettirilgan bo'lsa, «Mening oilam» rasmida zamonaviy uylarda yashayotgan baxtiyor oila ifoda etilgan. Bobo ularga gazeta o'qib, ta'lim berayapti. Odob dasturxon boshidan boshlanadi. Mohinur shunga e'tibor qaratgan. Senga omad yor bo'lsin, rassom do'stim!

E'tiborimizni tortgan ikkinchi xatni Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanidan Muxlisa Qurbonova yo'llabdi. U gazetamizni o'zi, sinfdoshlari hamda dadajonisi, oyijonisi bilan qiziqib o'qishi to'g'risida yozibdi.

2-fevralda dugonasi Surayyoning tug'ilgan kuni ekan.

Qadrlri Surayyo!

Tug'ilgan kuning bilan chin qalbdan tabriklayman. Hammaga sevimli bo'!! Muxlisadek seni qadrlovchi dugonalaring safi kengayib borsin!

Shuningdek, Muxlisa oilada 4 farzand ekanligini, akasi Feruzbek, ukasi Tolibjon, singlisi Dilmuralar haqida ham yozib yuboribdi. Shuningdek, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi 19-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Sarvinoz Hayito-

vaning she'rlarini oldik. «Ustozim», «Buvijon», «Onajon», «Dadajon» kabi nomlar ostida bir xilda bitilgan she'rlar ko'plab kelmoqda.

Sarvinoz! Sen ko'proq o'qi, o'rgan, hammani qoyil qiladigan she'rlar yoz! Sendan ana shunday she'rlar kutib qolaman!

G'ijduvon tumanidagi 63-ixtisoslashtirilgan maktab-internatining 7-«V» sinf o'quvchisi Laylo Suvonqulovaga ham shu maslahatni beraman. «Tulkivoy» she'ringni qayta ishlab, bizga yubor!

Sinfdoshing Sojida Ravshanovanning «Bobur» mashqini ham qayta ishlash lozim. 7-«A» sinf o'quvchisi Dilmora Isoqovanning «Jonajon maktabim» mashqi ham hali ishlashga muhtoj.

Sizlar haqiqatan ham she'riyat yo'lini tanlagan bo'lsangiz, bu yo'ldan aslo chekinmang. Menga maktabingizda o'tayotgan adabiy kechalar, yangiliklar to'g'risida ham yozib turing. Har biringizni yosh muxbirlarimiz bo'lishingizni orzu qilib qolaman.

Sizga hurmat bilan
«TONG YULDUZI»!

Sizlarni buyuk shoir, davlat arbobi Hazrat Alisher Navoiy bobomizning tavallud kunlari bilan tabriklayman. Bu zot to'g'risidagi bir-biridan qiziqarli maqola, lavha va hikoyalarni e'tiboringizga havola etayapman. Ularni o'qib, fikrlaringizni yozib yuborsangiz, juda xursand bo'laman.

Endi xatlarga o'tsam.

Toshkent viloyatining Bekobod tumani-dagi 18-maktabning 8-«B» sinf o'quvchisi Mohinur Bo'sinboevaning mak-tubi va chizgan rasmlari diqqatimni tortdi.

ALISHERNING
OTASI

Navoiy bobomizning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan Ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruh Mirzoning xizmatida bo'lgan.

ILK
QADAMLAR

Alisher Navoiy bobomiz birgina Hirot shahrida bir nechta oliy o'quv yurtlari, 47 ta rabot, qishloq, 17 ta masjid, 20 ga yaqin hovuz qurdirgan. Shuningdek, u aholi sog'lig'ini o'ylab, «Shifoia» shifoxonasini ham bunyod etgan.

BOBUR MIRZO

12 yoshida Farg'ona viloyati taxtiga o'tirdi. Uning eng mashhur asari «Boburnoma»dir.

GULBADANBEGIM

Gulbadanbegim nihoyatda zukko, ilmli, oqila qiz bo'lgan. U jahonda tarixnavis ayol sifatida mashhur. Uning «Humoyun-noma»si juda qimmatli adabiy-tarixiy asar hisoblanadi.

NARGIZA tayyorladi

daga bergan bo'lardim, – dedi.
Bu xushxabarni eshitgan
Shahzodaning u zotga bo'lgan mehri
yanada ortdi.

YUZ BAYTI BIR PUL

Shoir Osafiy ijod bilan kam
shug'ullanar, ko'proq vaqtini behuda



ishlarga sarf etar ekan. Alisher
Navoiy bobomiz unga tanbeh
beribdilar.

Xijolat tortgan shoir Osafiy:
– Behuda yurganim yo'q, kecha
ikki pullik sham yoqib, ikki yuz bayt
she'r yozdim, – debdi o'zini oqla-
moqchi bo'lib.

Hazrat bobomiz mayin jilmayib:
– Demak, yozgan she'ruringizning
yuz bayti bir pul ekan-da! – debdilar.

TIRIGI HAM BIR BALO

Mavlono Alishoh musiqiy ilmda
yagona bo'lib, Alisher Navoiy
Hazratlariga erkalik qilib turardi.
Bir kuni u zotga arz qildi:
– Amirim, ish boshqaruvchiga
aytsangiz, olti oylik maoshimni

oldindan berib qo'ysinlar.

– Umringizdan olti kun qolgan-
mi, yo'qmi, Mavlono, nechun omo-
nat hayotga bu qadar e'tiqod qo'yib,
olti oylik maoshingizni talab qilasiz?

– Bosh og'rig'i bo'lib yuramanmi
ularga, oldindan olib qo'yganim
yaxshi-da! Bordi-yu, o'lib qolsam,
kafanligimga yaraydi.

Alisher Navoiy Hazratlari:

– O'ligi ham bir balo, tirigi ham bir
balo, deganlari siz ekansiz-da! – dedi
kulib.

YUZ MING KEPAKIY

Alisher Navoiy Hazratlari juda
xalqparvar, bag'rikeng, saxovatli
inson edi. Mana bir misol:
1500-yilning avgust oyi.

Husayn Boyqaro Mizandaron
viloyatida tashrifda edi. Tashrif o'z-
o'zidan bo'lmaydi. Xarajatlar oshib
ketib, biroz mablag'ga ehtiyoj sezildi
va farmon berildiki, Hirot shahri va
uning atrofidagi aholidan zarur xarajat
uchun 100.000 kepakiy undirilib,
so'ralgan joyga tezda yetkazilishi
kerak. Lekin Alisher Navoiy
Hazratlarining fikrisiz va maslahatisiz
biron ishga qo'l urmas edilar. Yaqin
noiblari orqali bu gap zumda u kishiga
yetkazildi.

– Xalq ustiga o'rinsiz soliq solish
oliy darajali sohibqiron davlatiga
munosib ish emas! – dedi Alisher
Navoiy bobomiz va o'sha zahotning
o'zida mazkur mablag'ni o'zlarining
xazinalaridan to'lab yubordilar.

Xalq juda minnatdor bo'lib, u
zoti oliy bobomizni ko'pdan-ko'p
duo qildilar.

«Baliq ovida»

Shunda har xil ranglardan foy-
dalanib, men ham rasm chizishga
tushardim.

Baliq ovini judayam yoqtirganim
uchun bir kuni daryodan baliq
tutayotgan jo'jalarning rasmini
chizayotganimda, onajonim
kelib: «Juda chiroyli
chiqqapti, bu rasm nomini
«Baliq ovida» deb qo'ygini»,
degandilar. Shuning uchun
ham bu rasm menga juda
yoqadi.

Dilsora chizgan
rasmlarni tomosha qil-
lar ekanmiz, bu rasm-
larda bolalarcha be-
g'uborlik, samimiyat
o'z aksini topganligiga
guvoh bo'ldik.

Ulardan ayrimlarini
sizga ham ilindik,
aziz o'quvchilar!

Suhbatdosh:
Gulyuz BAHODIR
qizi

Dilsora oyijonisi olib
kelgan ertak kitoblarni juda yaxshi
ko'radi. Nega desangiz, bu kitoblarda ertak
qahramonlarining rangli suratlari ko'p-da. Bu
suratlarga qarab Dilsora ham oq qog'ozga ertak
qahramonlarining rasmlarini chizishga odatlangan. U
o'qiydigan 4-«B» sinfida iqtidorli o'quvchilar ko'p
bo'lsa ham, Dilsorani 220-maktabning rassom qizi
deb maqtashlari uni biroz xijolatga qo'yar ekan.

– Meni ras-
som qiz, de-
yishsa ham xur-
sand bo'laman, ham
xijolat bo'laman. Nega

desangiz, men hali rassomlik
darajasiga yetmaganman. Fa-
qatgina sevimli ertak qah-
ramonlarini rasmini chizishni
judayam yoqtiraman. Mak-
tabga chiqmasimdan oldin
menga kitob olib berishsa,
darrov rasmlarini tomosha
qilib chiqardim. Kitob
bilan birga menga rangli
qalam ham olib berishardi.



Bu yil biz so'z multining
sultoni Mir Alisher Navoiy
tavalludining 570 yilgini keng
nishonlamodamiz.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot
tavallud topdi. Bolalik davri Shohruh
hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U
temuriy zodalar, xususan, bo'lajak podshoh Husayn
Boyqaro bilan birga tarbiyalandi. To'rt yoshida
maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy
tildagi she'rnlarni o'qib yod ola boshladi. O'n besh
yoshida shoir sifatida tanildi.

1469-yil boshlarida Hirot taxtini Husayn Boyqaro
egalladi.

Alisher Navoiy podshoh saroyida dastlab muhrdor
mansabida xizmat qiladi. 1472-yil fevral oyida
Husayn Boyqaro Alisher Navoiy bosh vazir qilib
tayinlaydi va unga «Amiri Kabir» unvonini beradi.
U bu vazifada 1487-yilgacha xizmat qiladi. Shoir
yangi lavozimda, avvalo, butun kuchini mamlakatda
tinchlik va osoyishtalik o'rnatishga qaratdi. Vaqf
ishlarini tartibga solishga kirishadi. Savdo-sotiqni,
hunarmandchilikni, dehqonchilikni rivojlantirishga
katta ahamiyat beradi. Shaharlar, xususan, Hirot kun
sayin obod bo'la boshladi.

Alisher Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy
merosi asosan to'rt devonni o'z ichiga olgan «Xazoyin
ul-maoniyy»ga jamlangan. «Xazoyin ul-maoniyy»
insonning murakkab va yuksak tafakkuri hamda
behisob his-tuyg'ulari bilan bog'liq minglarcha she'r
va o'nlarcha she'r turlarini qamrab olgan majmua
bo'lib, jahon adabiyoti tarixida noyob hodisadir.

Ulug' shoir ijodining gultojisi «Xamsa» – «Hayrat
ul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun»,
«Sabba'i sayyor», «Saddi Iskandariy» deb atalgan
besh dostonidan iborat shoh asardir.

Buyuk ijodkor Hazrat Alisher Navoiyning
avlodlarga qoldirgan ilmiy va adabiy merosi asrlar
osha sayqallashib, naftaqat o'zbek xalqining, balki
jahon xalqlarining iftixoriga aylanib bormoqda.

DILOROM tayyorladi

Hazrat shaharlar va kentlarning osoyishtaligi bilan sarmoyasini ayamay sarfladi.

Navoiy boboning el-ulus uchun ko'rsatgan tengsiz xizmatlarini o'ylab o'tirib, xayolim bugungi kunlarimizga kechdi. Zamona sharofati bilan yurtimizda kun sayin tadbirkorlar ko'payib bormoqda. Ular xalq boyligiga boylik qo'shayapti, ro'zg'orini butlayapti, odamlarni ish bilan ta'minlayapti. Bu yerda men himmat minnatga aylanmasin, degan ma'noda tadbirkorlarning ismi-sharifini aytishni lozim ko'rmadim. Biroq, tahsinga loyiq ishlarini sanab o'tishni burchim deb bildim. Masalan, Parkent tumanidagi chorvador fermer bir necha bolani xo'jalik hisobidan institutda o'qitibdi. Farg'onalik fermer maktabga avtobus hadya qilibdi, qishloq yo'llarini ravon etib ta'mirlabdi. Surxondaryolik fermer xo'jaligi rahbari esa hamqishloqlari uchun shifoxona qurib beribdi. Navoiy bobo aytinganlaridek, mevali daraxtga aylanayapmiz, el shod bo'lmoqda, mamlakatimiz esa tobora obod bo'lib boryapti.

Sa'dulla
SIYOYEV

MEVALI DARAXTGA
AYLANAYAPMIZ



TO'GARAKNING



BIR KUNI

Men saboq berayotgan Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti qoshidagi aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabida «Yosh kitobxon» to'garagi a'zolarining soni kundan-kunga ortib bormoqda.

Kuni kecha to'garak mashg'ulotimiz she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodiga bag'ishlandi. O'quvchilar Alisher Navoiyning ruboiy va g'azallaridan yod oldilar. Shuningdek, u to'rt yoshidayoq Fariddin Attorning «Mantiqut-tayr» dostonini berilib o'qigan, olti yoshli Alisher mashhur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning savollariga aniq va puxta javob berib, keksa tarixchi e'tiborini tortganini gapirib, kichik sahna ko'rinishlarini namoyish etishdi.

To'garak mashg'ulotimizning bir kuni ana shunday qiziqarli o'tdi.

Nodira MAXAMADOVA,
aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Alisher Navoiy barcha asarlarida muruvvatning sharofati, xayr-ehsonning savobi, yaxshilikning saodati, baloi nafsning ofati xususida to'lib-toshib yozadi. Buyuk «Xamsa»ni varaqlay-sizmi, «Chor devon»nimi, «Mahbub ul-qulub»ni yoxud «Vaqfiya»nimi, bari-barida mutafakkir shoirning hikmat va ibrat to'la sattrlariga duch kelasiz.

Hazratning o'zlar umrlari davomida o'z so'zlariga amal qildilar va saxovat, xayr-ehson bobida misli ko'rilmagan savob ishlarga qo'l urdilar. Bu haqda ul zoti sharif bilan zamondosh bo'lgan yoki u kishining hayotini yaxshi bilgan muarrixlar yozib qoldirgan bitiklar shohidlik beradi.

Jumladan, Navoiy bobomiz o'z mablag'lari evaziga «Ixlosiya», «Nizomiya», «Xusraviya» madrasalarini barpo ettirdi. Bu ilm dargohida saboq beradigan mudarrislariga va tahsil oladigan talabalarga Navoiy o'z yonidan maosh to'lab turdi.

El-yurt shodligi, mamlakat obodligi ulug' shoirni hamisha bezovta qilib o'ylantirib kelgan. Shu bois,

Men yaqinda xazina topib oldim.
Endi esa uni hisoblab adog'iga yetolmayapman. Xuddi kinolardagidek biror kimsasiz orolga borib yoki qadimiy bino ostidan topib olgan bo'lsa kerak, degan xayolga bordingiz, to'g'rimi?

Hecham unday emas. Xalqimizda yetti xazina degan gap bor. Men ulardan birini topib oldim, xolos. Agar so'zlarimga diqqat bilan quloq solsangiz, siz ham ulardan biriga ega bo'lishingiz mumkin. Ha, aytganday, uni topishda menga Botirjon degan yigit yordam berdi.

Endi boshidan boshlamasam bo'lmaydi. Botirjon so'lim Surxon vohasining tog'lar bag'rida joylashgan Sharg'un shaharchasining Boyqishloq degan qishlog'ida tug'ilgan. O'sha paytlari ham ularnikida asalari boqilarkan. U olti yoshligidan ularga qiziqib qolibdi. Maktabga borganda esa arilarga doir kitoblarni o'qib, qiziqishi yanayam ortib, otasining yaqin ko'makchisiga aylanibdi. 7-8-sinfalarda



esa Botirjon o'zi bilmagan holda kichik tadbirkorga aylandi. Yuz ellik quti asalariga o'zi bemaol qaraydigan bo'ldi. Hozirgi kunda ularnikida ikki yuz quti asalari bor, Botirjonning aytishicha,

BOYQISHLOQLIK
BOTIRJON

asalarilar ishchi, suvchi, gulchang, shira, qo'riqchi, sanitar, onaga qarovchi va xabarchi guruhlariga bo'linib, har qaysi

burkangan chog'da qutilar tog'yon bag'rilarga ko'chirilib, kuzda esa yana hovliga olib kelinar ekan. Qish-qirovli kunlarda qutilar yaxshilab berkitilib, toza, yangi ko'rpa-chalar bilan usti yopiladi. Ularni bahorgacha qiyom bilan boqib turish ham Botirjonning zimmasida. Bu yillar davomida asalarilar necha yuz bor unga o'z nishlarini sanchib oldilar. Bundan esa u faqat xursand bo'ladi. Chunki ularning chaqishi ham bir qancha xastalikalarga davo deyildilar.

Botirjon bilan uzoq suhbatlashdik. Asalning shifobaxshiligini ko'pchilik biladi. Men esa undan tashqari gulchang, asalari suti, zahari hatto uning o'zi ham shifobaxsh ekanligini bilib oldim.

Endi esa sizni oddiy arifmetika mashqlarini birgalikda bajarishga taklif etmoqchiman. Yil davomida bir quti asalari uyasidan o'rtacha o'ttiz kilogramm asal olish mumkin. Agar uyin-

gizda ikki yuz quti asalari bo'lsa, bir yilda qancha asal yig'ib olasiz? Eh-he, deyishingiz aniq.

Botirjon bilan uchrashuvdan so'ng men ham asalari boqishni niyat qildim. Hozircha ikki quti asalarim bor. Rejalarim esa ulkan. Botirjondan esa tez-tez maslahatlar olib turaman. Aytgancha, u tadbirkorlik bilan bir qatorda sharqshunoslik institutida a'lo baholarga o'qishniyam uddalayapti.

Ota-bobolarimiz asalarini yetti xazinaning biri deb bejjiz aytishmagan. Men ulardan birini topdim. Balki sizda uni boqishga imkoniyat yo'qdir. Unda uydagi kattalardan qolgan olti xazina haqida so'rab ko'ring. Sizga mosi, albatta, topiladi. Vaqtni o'tkazmay ishga kirishing. Kichik tadbirkor bo'lib tanilishingiz aniq. Yangi ish boshlaganingiz haqida bizni ham xabardor qilishni unutman. Sizdan xushxabar kutib qolamiz.

Yusuf ABDULLAYEV

guruh o'z vazifasini sidqidildan bajararkan. Begona yoki biror badbo'y hidga o'ralashib qolgan arilar uyaga yaqinlashtirilmas emish.

Bahorda tabiat gullarga



G'azal sultonining betakror baytlaridan taralib turgan rang-barang nur jilosidan bahramand bo'lib, o'zimizcha shoir baytlarining guldastasidan yangicha ma'no kashf etishga urindik.

So'zni kitobxonga tanish bo'lgan ko'hna rivoyat bilan boshlaymiz. O'n besh yoshli zukko Alisherning so'z sehgari Lutfiy Hazratlariga qilgan ehtiromi-yu, ustozning shogirdni bir baytiga bergan yuksak bahosiga to'xtalamiz. Nega Lutfiy Hazratlari yosh Alisherning ijodiga bu qadar katta baho berdi ekan? Lutfiyga o'qib bergan baytda qanday sir bor ediki, ustoz bu qadar ta'sirlandi?

Keling, ushbu baytni yana bir bor qayta mutolaa qilaylik:

**Orazin yopqoch ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...**

G'azalni yangicha talqin qilamiz. Yosh Alisherdan Lutfiy Hazratlari g'azal o'qib berishni so'raydi. Shogird deydi: «Yuzin yopgach mening ko'z yoshlarim biror lahza tinmaydi. (Vidolashuv onlari nazarda tutilgan. O'shanda Lutfiy Hazratlari to'qson bir yoshda bo'lganlar. A.K). O'ylang, yulduz quyosh og'anda paydo bo'ladi». Bayt bilan go'yo Alisher Lutfiy Hazratlarini borliqqa nur sochib turgan quyoshga mengzaydi. O'zini esa yulduzga. Yulduz quyosh chekingan mahal paydo bo'lishiga ishora qilgan. Shogirdning baytidan uning kelajagini bashorat qilgan ustoz ijod olamiga o'zidan-da balandroq inson kirib kelayotganini fahmlab,

Yangicha talqin -
«Quvnoq
tanaffus»da o'qing
va bu maqoladan
yangicha fikr topib,
aql xazinangizni
boyiting.

BIR BAYT SIRI...



umr bo'yi chekkan zahmatlari evaziga bitilgan o'n ikki ming misradan iborat mashhur g'azallarini shu mo'jaz bayt uchun hadya etishga chog'lanadi. Biz ustozning bag'ri kengligidan zavqlanamiz. Hamma davr-u zamonlarda ham ulug' donishmandlar o'zidan ilmi insonlarga tan bergan. Ijodkor ko'ngli qancha toza bo'lsa, uning asarlari shuncha uzoq umr ko'radi. Negaki, toza qalbning hosili buloq suvi kabi shifobaxsh va musaffodir. Bobokalonimiz Hazrat Alisher Navoiy asarlarining

barhayotligini siri ham shunda. Ul zot o'z ijodida hayotning ikirchikirlariga o'ralashib qolmay, komil inson bo'lish, komillikka yetishning mashaqqatli yo'lini tanlagan. Bani bashar dardini qalbgga jo aylab qog'ozga to'kkan. Shuning uchun shoir g'azallarini bot-bot mutolaa qilganda, yangicha mazmun-mohiyat kashf etaveramiz. G'azal sultoni Alisher Navoiyning «Zanjirband sher yengaman der» tarzida chizgan suratida unsiz imo-ishoralar o'zini oqlaydi. Mening nazarimda, zanjirband sher qismati, so'zlardan tizilgan so'z zanjiridagi she'rga qiyos etilgan kabi tuyuladi. Bobokalonimiz ushbu tasvir orqali ijod ahliga she'r yozish mashaqqati qancha og'ir ekanini ifoda etayotgandek. Nima bo'lganda ham she'r bitish shoirdan hayvonlar shahanshoi sherni tutib zanjirband etish kabi kuch talab qilishini payqagandek bo'lamiz. Hazrat Navoiy ijodining asrlarni qaritib, ko'ngillar olamini charog'on aylashiga so'zlar zalvori-yu yurak sofligi muhimligini anglaymiz.

Ahtamqul KARIMOV

MUZLATGICHGA



YASHIRDIM

Murodolti yoshda.
Qo'shnisining u bilan
tengdosh Malika ismli qizi
bor. Ular ko'pincha
birga o'ynaydilar.

Bir kuni Malikaning ayasi mehmonlar ketishayotganini aytib, qafasdagi qushlarini Murodlarnikiga olib chiqibdi:

— Murodjon, Malikaning qushlarini sizlarnikida qoldiraman, o'zing suv-puvidan xabar olib turgin. Ehtiyot bo'l, yana ularni mushuging yeb qo'ymasin, — deya tayanlabdi.

Malikalar mehmondan qaytishgach, ayasi qushchalarini olish uchun Murodlarnikiga chiqibdi.

Murodning ayasi qarasa, qafasda qushchalar yo'q emish. Xavotirlanib o'g'lidan so'rabdi:

— Murodjon, Malikaning qushlari qani?

— Ayajon, xavotirlanmang, men ularni muzlatgichga yashirib qo'ydim. Axir o'zingiz: «Mushuk tegmaydigan joy — muzlatgich» degansiz-ku...

Gavhar RABBIMOVA,
Samarqand viloyati, Urgut shahridagi 123-maktabning 4-sinf o'quvchisi

**BOSHQOTIRMA
QAYSIRANGDA?..**

- Osmon.
- Maysa.
- Jo'ja.
- Mushuk.
- Qosh.
- Qor.

Tuzuvchi: Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi Gulsara AHROROVA

— Soatni ustaxonaga olib borib, tozalatish kerakka o'xshaydi, — debdi Maftunaning dadasi.
— Dadajon, ovora bo'lmang. Soatni kecha o'zim yaxshilab sovunlab, tozalab qo'yganman...

— Muzaffar, nega uy vazifasini bir kun bajarib, ikkinchi kuni bajarmay kelasan? — so'radi o'qituvchi.
— Chunki dadam bir kun uyda bo'lsalar, ikkinchi kuni ishda bo'ladilar.

Geografiya fani o'qituvchisi o'quvchidan so'radi:
— Ayt-chi, Dushanba qayerda joylashgan? Dushanbami, yakshanba bilan seshanbaning o'rtasida...

So'ralar

Tursunboy
ADASHBOYEV

DANGAL GAP

(Shoir Mahmud RAJABga)

Fayzirahmon bobomlar,
Poytaxtdan olisda
Gurlan degan tumanda,
Ter to'kadi polizda.
Egatlarni oralab,
Ko'chatlarga zeb qo'yar,
Yoqtiradi bir so'zni,
Chaqqonmisiz? – deb qo'yar.
Qovun yotar pushtada,
Dumalashib, qalashib.
Saraton oftobida,
Asal yig'ar talashib.
Karnay gullar andarmon
Turar og'zi ochilib.



Kartoshkalar shaharga,
Safar tortar shoshilib.
Madad olib, kuch yig'ib,
Dehqon bobom lafzidan,
Qoziqdayin qoqilgan,
Yerga biyron sabzi ham.
Qovoq tolga osilib,
Bo'y cho'zdi – davolandi.
Bu tekin tomoshadan,
Qamishlar havolandi.
Qutlug' Gurlan eliga
Gurvak qovun hamrohdir.
Ha, ularning tilida,
Yaltiroq so'z kamroqdir.
Shoir ukam Mahmudjon,
Fikringiz to'g'ri, biroq,
Soxta mulozamatdan,
Dangal gaplar yaxshiroq.

QISH ZAVQI

Qish bizlarga quvonch berar,
Qorbobo-yu Qorqiz kelar.
Chang'ilarda mazza qilib,
Bolajonlar shodlik terar.
Qishda barcha uychalar,
Oppoq qalpoq kiyishar.
Qishning dilxush havosini
Shamollar quvishar.



BAG'RI TO'LA DUR O'LKA

Faxrimizsan har doim
Yashnayotgan hur o'lka.
Quchog'ingda baxtlimiz,
Bag'ri to'la dur o'lka.

Faxrimizsan, Vatanim,
Senga mehrim ziyoda.
Bilsam yorug' dunyoda,
Sendan go'zal maskan yo'q.



Sitora TOSHMATOVA,
Toshkent viloyati,
Bekobod tumanidagi
pedagogika kollejining
2-bosqich talabasi

SOG'INCH

Tavba, men kimnidir sog'indim chog'i,
Yuragim bezovta, xayol parishon.
O't olar qabimda hijron firog'i,
Shivirlab yomg'irlar yog'ayotgan on.

Tavba, men kimnidir sog'indim chog'i,
Yuragim arazlar mendan og'rinib.
Yonarmu mening ham ko'nglim chirog'i,
Yo umrim o'tarmi faqat sog'inib.

Yuragim osuda urmaydi, nega,
Doimo sog'inib yashayman nechun?
Ollohim, iroda, sabr ber menga
Sog'inchning og'rig'in yengmoqlik uchun!



Munisa ABDULLAYEVA,
Toshkent shahridagi
266-maktabning
4-sinf o'quvchisi

MEHRIDARYO ONAJONIM

Oq sut berib katta qilgan,
Gar quvonsak shodon kulgan.
Gullar tutay onajonim,
Siz tufayli keng jahonim.

Parvonasiz bizga har dam,
Ko'nglingizga yog'masin g'am.
Omon bo'ling, jonajonim,
Mehridaryo onajonim.



Vasila SHOPO'LATOVA,
poytaxtdagi
97-maktabning
4-sinf o'quvchisi

TO'PTOSH

To'ptoshim, dono toshim,
Oddiyman, tillo toshim,
Kaftlarimda irg'ishlab,
Qilmagin hiylo toshim.

To'ptoshim, tillo toshim
Ariqdan tutib oldim.
Yoshligim tikib unga,
Bilmam, ne yutib oldim
Shohinur SIDDIQOVA

Yayra SA'DULLAYEVA

CHIP-CHIPJON HAQIDA JAJJICINA QISSA

Chip-chipjon mittigina edi. Uychasi ham kichkina. Unga kechagina sig'ib turgandi, bugun bo'lsa sig'mayapti. Negaligini o'zi ham bilmaydi.

Chip-chipjonning birdan qimirlagisi, oyoqlarini, qilganotlarini yozib yayragisi keldi. Oyoqchalari bilan bir tepib, devorchasini qulatib yubormoqchi bo'ldi. Qayoqda, oyog'ini qimirlatishga joy yo'q-ku! Shunda bexosdan tumshug'i qichib qoldi. Uni qashimoqchi bo'lib devorchaga bir-ikki ishqalagandi, kutilmaganda qiziq ovoq chiqa boshladi: «Qitir-qitir... Qitir-qitir...» Ovoq o'zigayam yoqib ketdi. Keyin «Kim bor?» degisi kelib tumshug'i bilan devorchani taqillata boshladi. Buni qarangki, undan darcha ochilib, ichkariga hali Chip-chipjon yaxshi anglab yetmagan bir narsa sizib kira boshladi. Bundan Chip-chipjonning a'zoyi badani yengil tortdi. Chip-chipjon suyunganidan oyoqlarini kermoqchi bo'lib bir uringandi, uychaning devorlari qulab tushdi. Atrofi unga o'xshash o'zini eplolmaydigan mittivoylarga liq to'la edi. Ular bir-birlarining biqinlariga tiqilganlaricha bir-birlaridan taft olishardi.



Qissadan parcha

JIMIT BARMOQLAR

Oradan bir necha kun o'tgach, Chip-chipjon va uning o'rtloqlarini yopiq mashinaga solib, qayoqqadir olib ketishdi. Katta-katta barmoqlar boshi uzra u yoqdan-bu yoqqa o'tgan sari o'rtloqlari kamaya boshladi. Chip-chipjonni bo'lsa, avvaliga haybatli qora barmoqlar shosha-pisha ushladi. Keyin o'zi kabi kichkina barmoqlarga o'tdi. Bu barmoqchalar Chip-chipjonni ehtiyotlab ushlab bag'riga bosdi. Keyin qancha yurishdi, bilmadi.

Chip-chipjon o'ziga mehribonlik qilayotgan jimit barmoqlarni hammadan ham tezroq sog'inardi. Chunki ko'pincha ular ko'rinmay qolishardi. U keyingi kunlarda bir narsani seza boshladi. Eshik oldida nimadir unga mo'ltirab qarab turardi. Oq-qora dumlarini likillatib, tilchalarini osiltirib, «bu yoqqa chiq, buyoqqa chiq», deya yotganga o'xshardi. Chip-chipjon uning oldiga qanday borishni hali bilmasdi. Yangi tanishining «vov-vov»lashidan qo'rqib, uychasiga bekini olardi. Tanishi osmonda uchgan allanimalarga qarab miriqib vovillab-vovillab hovlini bir aylanib kelardi. Dumini likillatib Chip-chipjonni yana pastga, hovliga chorlardi. Chip-chipjon Do'mboqovoyning xafa qilmasligiga ishona boshladi. Shunday bo'lsa ham o'zicha Do'mboqovoyning qo'rqitmoqchi bo'lib o'rman turdi-da, kuchukchaning oldiga zarb bilan yugurdi. Do'mboqovoy kutmagan ekanmi, Chip-chipjonning vajohatidan orqasiga tisarilib ketdi. So'ng, o'zini tutib oldi. Shu kuni ular o'rtog' tutinib rosa o'ynashdi. Keyin charchashdi shekilli, soya joyga borib dam ola boshlashdi. Chip-chipjon Do'mboqovoyning bag'rida miriqib uyquga ketdi. Bir vaqt ko'zini ochsa, oshxona eshigi oldida qop-qora bir nima unga tikilganicha turibdi. Ko'zlari yonadi. Chip-chipjon, ayniqsa, uzun-uzun mo'ylovlaridan qo'rqib ketdi. Qoravoy timoqlari uzun-uzun qo'li bilan mo'ylovlarini silab-silab qo'yardi. Do'mboqovoy ziyrak yotgan ekan, bir vovillab bergan edi, Qoravoy erinibgina uy orqasiga o'tib ketdi.



Qadrli sportsevar bolajonlar! Bu yil so'z mulkining sultoni Navoiy bobomiz tavallud topgan kunning 570 yilligi nishonlanmoqda. Bu qutlug' sana navoiylik tengdoshlaringiz hayotida yanada sermazzmunligi bilan alohida diqqatga sazovordir. Nima uchun, deysizmi? Bugun Navoiy shahri o'z gacha qiyofada qad rostlamoqda. Ayniqsa, zamonaviy va muhtasham, ko'rkam sport maydonlarida bunyodkorlik ishlari avjida. Bu yerdagi bunyodkorlik ishlaridan ko'nglingiz tog'dek ko'tariladi. Ammo xulosa qilishga shoshilmang. Navoiy viloyati haqida alohida ta'kidlashimizning o'ziga xos sabablari bor. Chunki siz intiqib kutayotgan navbatdagi «Umid nihollari – 2012» sport musobaqalari aynan shu yerda o'tkaziladi.

Hali musobaqalar boshlanishiga roppa-rosa bir yil bor. Biz tayyorgarlik ishlari haqida sizlarga oldindan xabar berish maqsadida, Xalq ta'limi vazirligi bolalar sportini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i O'tkir aka RASHIDOV bilan suhbatda bo'ldik.

– O'tkir aka, sport musobaqalariga ayni damda viloyatda ishlari qay tarzda olib borilmoqda?

– Sog'lom avlod tarbiyasi mam-lakatimizda eng ustuvor vazifa ekanligi barchamizga ayon. Maktab o'quvchilari o'rtasida ommaviy sportni rivojlantirish bu boradagi ishlarimizning asosini tashkil etadi.

Hozirda mezbon navoiyliklar zimmasida katta mas'uliyatli vazifa turibdi. Bu yurtimizda joriy qilingan uch bosqichli tizimning birinchi bo'g'ini hisoblanmish «Umid nihollari – 2012» sport musobaqalariga puxta tayyorgarlikdir. Maqsadimiz ayni damda u yerda sport musobaqalarini yuqori saviyada tashkillashtirishdan iborat. Viloyatdagi mavjud sport inshootlarining qaytadan ta'mirlanishi, yangidan qad rostlashi uchun yetarli ishlar boshlandi. Navoiy shahrida jami 19 ta ob'yekt aniqlanib, ushbu ob'yektlarda ishtirokchilarni joylashtirish, ovqatlantirish hamda sport musobaqalarini o'tkazish joylari aniqlandi.

– Tizim tarkibidagi «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» kabi musobaqalarining har uch yilda o'tkazilishining sababi nimada?

– Bundan maqsad, o'quvchi yoshlarni qisqa muddatda uzluksiz sport harakatiga jalb etish. Yana bir tomoni shundaki, mazkur musobaqalar orqali

joylardagi sport bazalaridan samarali foydalanish, sport mutaxassislarining ishini yanada faollashtirishdan iboratdir.

– Xohlaymizmi, yo'qmi, mam-

basketbol, qo'l to'pi va boshqa sport turlarida o'z mahorat va iste'dodlarini namoyon eta oldilar. Hatto yuqori malakali sportchi nomiga erishdilar. Ularning oliy

– Navoiyda o'tadigan musobaqalarga tayyorgarlik ishlari ta'lim muassasalarida qanday tashkil etilmoqda?

– Darhaqiqat, 2010-2011-o'quv yilida bo'lib o'tadigan «Umid nihollari» sport musobaqalarining maktab, tuman, viloyat bosqichlarini yuqori darajada tashkil etish maqsadida buyruq va harakat dasturi ishlab chiqildi va joylarga yetkazildi. Ayniqsa, maktab bosqichiga alohida e'tibor, mas'uliyatsizlik bilan yondashgan ta'lim muassasasi rahbari ham intizomiy choradan chetda qolmaydi. Joylarda o'quvchilarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishlari qamrovini oshirish, mashg'ulotlar doimiyliigi va nazorati birlamchi ekanligiga e'tibor yanada kuchaydi.

UMID NIHOLLARI NAVOIYDA

lakatimizda an'ana tusini olgan ta'lim muassasalaridagi o'zbek sport harakati modeli o'z ishini a'lo darajada bajarayotganligi sir emas. Bugungi kunda uning natijalari haqidagi fikringiz...

– Chindan-da, mazkur tizim ta'lim dargohlarimizda ommaviy sportni nufuzini oshirdi. O'zaro bog'liq bo'lmagan, tarqoq va aniq maqsadga ajratilmagan sport musobaqalarini tartibga keltirdi. Qizlar o'rtasida suzish, yengil atletika, badiiy va sport gimnastikasi turlarini rivojlantirishga sabab bo'ldi. Ayniqsa, iqtidorli sportchilarni kashf etishdagi xizmatini aytmasizmi?! Respublikamizning barcha viloyatlaridagi shahar va tumanlardagi markaziy stadionlar, yotoqxonalar jahon andozalariga mos ravishda qaytadan ta'mirlandi. Faxr bilan aytisak arziydi, farzandlarimiz voleybol,

liga musobaqalarida jamoa bo'lib qatnashishi ozmuncha gap emas, axir...

– Ayniqsa, qizlarimizga alohida mentalitetimiz darajasidagi sport kiyimlarining joriy etilishi mashg'ulotlarni ko'proq ayol murabbiylar tomonidan olib borilishi haqida nima deya olasiz?

– Bu masala Guliston shahrida bo'lib o'tgan «Umid nihollari – 2009» sport musobaqalarida dastlabki natijasini berdi. Surxondaryo viloyati qo'l to'pi qizlar jamoasi, Toshkent jamoasi ustidan qozongan g'alabasi, Jizzax va Xorazm viloyati basketbolchi qizlarining yutuqlari hamon tillarda doston.



Milliy o'yinlar

Hademay bahor keladi. Ko'chalarni to'ldirib, bolalik zavqingizni toshirib, o'rtoqlaringizni chaqirib, turli-tuman o'yinlar o'ynay boshlaysiz. Folklor va etnografiya bilan qiziquvchi jurnalist Guljahon opa MARDONOVA ham o'yingiz turlarini boyitish maqsadida yana bir qadimiy milliy o'yinimizni sizga tuhfa etmoqda. O'yin nomi «Momom bozordan keldi» deb ataladi.

Albatta, bu o'yinda turli xil mato laxtaklaridan foydalanasiz. Ular yordamida bir-biridan chiroyli o'ttitzacha yumshoq koptokchalar yasaysiz. Koptokchalar tayyor bo'lgach, momongiz ularni yoyib tashlaydi. Gap shundaki, momoning cho'ntaklarida yong'oq, turshak, mayiz bor. Nevaralar shu narsalarga erishmoqchi. Ammo momo ularga turli shartlar aytib bajarishga undaydi. Kim bu shartlarni uddalasa, shirinliklar uniki.

**Qani, qizim Salima,
Chaqqon-chaqqon sakrab o't.
Biron-bir koptokchani,
Ikki oyog'ingda tut.**

Qiz turgan joyidan sakrab, koptokchalar yoniga keladi. Ikki oyog'i orasiga bitta koptokni ilib olib, uni tushirmasdan belgilangan manzilga yetkazadi. Momo:

MOMOM BOZORDAN KELDI



Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

**Gulim, Gulim, Oygulim,
O'zing hammadan so'lim.
Egilganicha ishlagin,
Koptokchani tishlagin.**

Bu qiz ham ikki oyoqda sakrab kelib egilganicha koptoklardan birini tishlaydi va qolgan koptoklarni bosib olmaslikka harakat qilib, emaklab manzilga yetadi. Momo deydi:

**Tillo qizim Gulmiram,
Aqlisan sen biram.
Bir oyoqda oralab,
Gullar tergin saralab.**

Navbatdagi qiz bir oyoqda sakrab, qo'llari bilan koptokchalarni tera boshlaydi. Sharti qiz egilishi mumkin, ammo o'tirib koptokchalarni olishi mumkin emas.

O'yin ana shu tarzda davom etadi. She'rxon momo esa o'yinda ishtirok etayotgan har bir qizning ismiga, fe'l-atvoriga qarab she'r to'qiydi. Hatto qizlarni To'maris, Barchinoy deb she'rga solishi mumkin.

«Momom bozordan keldi» o'yini qizlarni jismoniy harakatlarini tetiklashtirib qolmay, ularni chaqqon va uddaburon, hunarli bo'lishlariga yordam beradi.

GO'ZAL HAYOT SIRLARI

Har bir inson yaxshilik so'zini eshitganda, o'zini boshqacha sezib ko'ngli ham yorishib ketganday bo'ladi, menimcha. Bizni ko'zimizga dunyoni yaxshi ko'rsatadigan, yashashga qiziqtiradigan, yaxshi orzular qildiradigan, hayotni ko'zimizga yorug' ko'rsatadigan - hammasi yaxshilikdan.

Buni yozishimga bir narsa sabab bo'ldi, qaysi kuni uxlab yotib tush ko'rsam, mendan qilgan yaxshiligim to'g'risida so'roq-javob qilganday bo'lib ko'rindi, uyg'onsam, tushim ekan. Shundan keyin qo'limga qalam olib kimlarga yaxshilik qila oldim-u, kimlarga qila olmadim, degan o'ylar bilan yoza boshladim. O'tgan kunlarimni esladim. Boshqalarga ham eslatib qo'yay degan umid bilan yaxshilikka da'vat qilaman. Biz hammamiz yaxshilik deganda nimalarni tushunamiz, shularni bilishimiz kerak. Men yaxshilikni quyosh nuriga o'xshataman, quyosh nuri qayerga tushsa, ko'kartiradi, o'stiradi, meva hosil beradi. Yaxshilikning nuri qayerga tushsa, ham o'z hosilini beradi. Yoki daryo suviga o'xshaydi, qayerga borsa obod qiladi. Xullas, bu gaplarning oxiri yo'q. Misollar keltiraman: ertalab turib, ota-onaga salom berish yoki kelgan mehmonni kutib olish, kuzatib qo'yish. Xulosa qilib aytganda, dunyoning, hayotning go'zalligi yaxshilikdan iborat.

Saidikromxo'ja SAIDMAHMUDOVI

YAXSHI
KITOBLAR

Kichikintoylar uchun qalam tebratish, ochig'i, oson emas, buning ustiga hamma ijodkorlarning ham qo'lidan kelavermaydi. Ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolajonlarga manzur bo'ladigan she'rilar yozish qalamkashdan so'zga o'ta e'tiborli bo'lishni talab qiladi.

Shu ma'noda, farg'onalik bolalar shoiri, pedagog Vali Ahmadjonning ijodi yosh kitobxonlarga sevimli. Katta yoshdagi bolalar adabiyoti ixlosmandlari ham bu shoir ijodidan qoniqish hissini tuyishadi.

Shoir Vali Ahmadjon Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanidagi Konizar qishlog'ida tug'ilgan. Uning shu kungacha «Yetti o'lchab, bir kes», «Gulxumorning gulbog'i», «To'r ko'ylak - Zar ko'ylak», «Yig'loqi g'ozlar» kabi qator to'plamlari chop etilgan. She'r va hikoyalari «Tong yulduzi»ngiz kabi «Gulxan», «G'uncha» jurnallarida ham muntazam chiqib turadi.

Shoir o'z qalbidagi bolajonlarga bo'lgan bor mehrini she'rlarga soladi. Ozodbek, Doniyorjon, Nozimaxon, Dilraboixon, Hosilaxon, Gulsanamxon kabi nabiralarning gulgun chehralaridan, o'y-u orzularidan, shirin-shakar so'zlaridan ilhomlanadi.

Kovushimning tishi yo'q,
Yomg'irli kun ishi yo'q.
Kiysam, «guppa» yiqitar,
Yurishga hech hushi yo'q,
deb yozadi.

Yaqinda shoirning hayotida quvonchli voqea yuz berdi. Uning navbatdagi kitobi «Orzuim egasi» dunyo yuzini

ko'rdi. Kitobning chop etilishida iste'dodli bolalar shoiri, filologiya fanlari nomzodi Dilshod Rajabning xizmati katta bo'ldi. «Muharrir» nashriyoti mazkur kitobchani 1000 nusxada chop etdi. Kitobchadan muallifning so'nggi yillarda yozgan yuzga yaqin quvnoq, kulguga boy she'rilar joy oldi.

Shoir har bir she'rda bolajonlarga ohorli bir gap aytishga, ezgulik va shodlik ulashishga harakat qildi:

Stulchamni oyog'ida
Tikka turadi.
O'tirishni bilmayin,
Xayol suradi.

«Orzularim egasi» kitobchasini varaqlasangiz, shoir Vali Ahmadjonning qanday orzulari borligi va bu orzularining egasi, to'g'irrog'i, egalari kimlar ekanligini darrov bilib olasiz. Umidli ijodkorning yangi she'riy kitobchasi bilan bo'ladigan mutolaa onlaringiz ko'ngilli kechsin.

Abdurahmon AKBAR,
bolalar shoiri, Cho'lpon
nomidagi NMIU muharriri

Sahifalarni bezatishda Osimxon VOSIXONOV
chizgan rasmlardan foydalanildi.

FELING, BIR
KULISHAYLIK


- Dilshod, doim yolg'on gapirgani uyalmaysanmi? Yana yolg'on gapirsang, dadangga aytaman.
- Aytavering, ustoz, mening dadam ob-havo byurosida ishlaydilar.

Muhabbat HAMIDOVA

- Hoy, o'g'lim, axir do'xtir senga muzday suv ichma, tomoq og'rig'ing qaytalanib qoladi degandi-ku.
- Oyijon, bu yerda do'xtir yo'q-ku!

Dunyoda eng keksa er-xotin Tayvandda yashashadi. Erining yoshi 103 da bo'lsa, xotinini 102 da. Ular 85 yil birga yashashgan. Bu uzoq umr ko'ruvchilarning nikohidan o'tgan kunni nishonlashga kelgan nevara va chevalarning soni 110 kishidan oshgan.

Futbol ishqibozlarini junbushga keltiradigan 11 metrlik penaltini kim tomondan o'ylab topilganligini ko'pchilik bilmasa kerak. Bu jarima to'pi - penalti - futbol qoidalari bo'yicha irlandiyalik mutaxassis Jon Penalti nomi bilan ataladi. Aynan u 1891-yilda qo'pol harakat qilgan yoki qo'l bilan o'ynagan jamoani jazolashning ushbu usulini taklif etgan.



- Bugun o'qituvchining dars o'tishimga xalaqit berdi, deb sendan shikoyat qildi.
- Tavba, butun dars bo'yi uxlagan bo'lsam, qanday qilib xalaqit beraman?
- Xurрак otib...

BILASIZMI?

TONG
yulduzi

Muassislari:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 69470
Buyurtma N: J 1056